

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Alisher Navoiy nomidagi

Samarqand davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi

«O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi» fani

Mavzu: “Hayrat ul-abror” dagi o'n birinchi maqolat va hikoyat tahlili

Kurs ishi

2012-2013 o'quv yili

Bajaruvchi: 2-kurs 02-guruh talabasi: Xushmurodova Ch.

Ilmiy rahbar: dots.G.Xoliqulova

**Kurs ishi O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi komissiyasida himoya
qilindi va _____ ga baholandi. (Bayonnoma № ____ 2013)**

Komissiya raisi: prof. D.Salohiy

Komissiya a'zolari: f.f.n. Xoliqulova G.

f.f.n., o'qit. I. Sulaymonov

Samarqand 2013-yil.

MAVZU: “Hayrat ul-abror” dagi o’n birinchi maqolat va hikoyat tahlili

REJA:

I. Kirish : “Hayrat ul-abror” asarining umumiy tavsifi;

II. Asosiy qism:

1. Asardagi o’n birinchi maqolat haqida:

a) Maqolat mazmuni bilan unga qo‘yilgan nasriy sarlavhaning mushtarakligi;

b) Maqolatda olim va johil xususiyatlarining talqini;

2. Asardagi o’n birinchi maqolat va hikoyatning o‘zaro uyg‘unligi;

3. Insonlarning komillikkka erishishida ilimning ahamiyati;

III. Xulosa;

I. Kirish. “Hayrat ul-abror” asarining umumiy tavsifi

«Hayrat ul-abror»-Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi muqaddimaviy—rejanoma dostoni. Mazkur asar oʻz navbatida «Xamsa» uchun gʻoyaviy-mazmun nuqtai nazaridan yoʻnaltiruvchilik ahamiyatiga molik. Unda loʻnda xulosalar holida bayon etilgan dono fikrlar, komil insonga xos noyob fazilatlar talqini «Xamsa»ning boshqa dostonlarida mantiqiy rivojlantiriladi, takomiliga yetkaziladi. «Xamsa» dostonlarini ana shu shoh asardan ibtido topuvchiligi pishiq, oʻylangan tafakkur zanjiri bir— biriga bogʻlab, tutashtirib turadi. Doston 63 bobdan tarkib topgan boʻlib, uning 21 faslini anʼanaviy muqaddimaviy boblar, 40 bobini—20 maqolat va 20 hikoyat, qolgan ikki bobini esa—xotima va bir hikoyat tashkil etadi.¹

Professor N.Mallayevning fikricha bu doston 7976 misradan iborat. Dostonning tuzilishi ham oʻziga xos. Dostonning asosini 64 bob tashkil etadi. Dostonning 21-bobi muqaddima, 20-bobi maqolatlar, 20-bobi turli mazmundagi hikoyatlar, masallar, 3-bobi - xotimadan iborat. Dostonda qoʻyilgan masalalarni shartli ravishda 3 yoʻnalishda oʻrganish mumkin:

1. Falsafiy masalalar.
2. Ijtimoiy - siyosiy masalalar.
3. Axloqiy - taʼlimiy masalalar.

Asarning oʻz ichki boʻlinishlariga ega boʻlgan anʼanaviy — muqaddimaviy boblari, insonning ijtimoiy hayotdagi oʻrni va maʼnaviy kamolotiga bagʻishlangan maqolat hamda ulardagi fikrlarning tasdigʻi uchun keltirilgan hikoyatlari ham mohiyat eʼtibori bilan butun «Xamsa»ning boshlanmasi sanaladi. Muqaddimaviy boblar bir-biri bilan mantiqan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

LHamd, munojot va naʼtlar (1-11-boblar) Bunda ikki hamd, toʻrt munojot va besh naʼtga oʻrin berilgan.

2.Ulugʻ salaf, zamon hukmdori va soʻz taʼrifi (12-16-boblar). Mazkur boblarning dastlabkisida ikki ulugʻ xamsanavis Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy, keyingi toʻrttasida esa Nuriddin Abdurahmon Jomiy, soʻz taʼrifi va Sulton Husayn Boyqaro haqida fikr yuritiladi.

¹ Vohidov R. J., Eshonqulov H.P. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti-2006. 310-bet

3.Ko`ngil ta'rifi, uch liyrat va Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy vasfi (17-21-boblar).

Dostonning bosh qahramoni - A.Navoiy. Professor A.Hayitmetov «Hayrat ul-abror»ni «Xamsa»ning program qismi deb ta'kidlaydi. «Hayrat ul-abror»da A.Navoiy insonning xudo oldidagi, jamiyat oldidagi burchini, vazifalarini tushuntirishga harakat qiladi. Navoiy dostonning dastlabki qismlarida falsafiy fikrlarini bayon etadi. Bunda Oллоh haqida, ilohiyot haqida, dunyoning yaratilishi haqidagi fikrlarni bayon qiladi. Dostonning «Ul xoliq hamdidakim» deb boshlangan bobi va undan keyin keladigan 4 ta munojot boblari shoirning falsafiy-axloqiy qarashlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy boblar «Hayrat ul-abror»ning dasturiy —rejanoma doston bo'lishi uchun zamin hozirlaganini bir misol asosida izohlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, asarning ilk misrasini «Bismillohir—rahmonir rahim» ilohiy jumlasini tashkil etadi. Jami bir yuz-u ikki misradan tarkib topuvchi ushbu bobda boshdan oxir o'sha «Mehribon va rahmli Oллоh nomi bilan (boshlayman)» ilohiy jumlasiga badiiy talqin beriladi. Harf san'atiga tayangan ulug' shoir, nafaqat so'zlarda, balki o'sha so'zlarni yozuvda aks ettirishga ishtirok qiluvchi har bir harfga keng mazmunli hamda badiiy bo'yoqdor talqinlar beradi. Ulug' shoir harflarni sharhlar ekan, ilohiy jumilaga munosabat qiluvchining ko'ngil holatiga ko'ra, istiqbolga keluvchi kayfiyatini (yaxshi yoxud yomon) alohida urg'u bilan ko'rsatadi.

Musulmon dunyosida amalga oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning «Bismillohir—rahmonir rahim» ilohiy jumlasini bilan boshlanishi muqaddas an'anadir. Zamonasining yetuk va komil musulmoni bo'lgan Alisher Navoiy esa o'sha an'anaga rioya qilishni sharaf hisoblagan. «Hayrat ul-abror» birinchi bobining ayni muqaddas mavzuga bag'ishlanishi fikrimiz dalilidir. «Xamsa»dan o'rin olgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyon», «Saddi Iskandariy» dostonlari boshida - birinchi bobida o'sha ilohiy jumla ko'zga tashlanmaydi. Shayx Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari Alisher Navoiy ham «Xamsa»ni yaxlit jism, o'zaro mantiqan bog'langan dostonlar turkumi sifatida qabul qilgani uchun ham shu yo'ldan boradi. Ikkinchidan, «Hayrat ul-abror»dayoq keyingi dostonlarga taalluqli ishora-yu lavhalar singdirilib boriladi. Shundan bo'lsa kerak, har bir dostonning oxirida «Hayrat ul-abror»ga daxldor xulosa bor, ammo yakuniy xutba-duo yo'q. Butun «Xamsa»ning xotima-yu xutba-duosi «Saddi Iskandariy» dostonining oxirida beriladi. Bunday janriy belgilarni yana qatorlashtirish mumkin. Fikrimizcha, bildirilgan mulohazalarimiz ham «Xamsa»ning yaxlit asar ekanligini ko'rsata oladi. Shunday ekan, aytish mumkinki, «Hayrat ul-abror» Alisher Navoiy «Xamsa»sining muqaddimaviy-dasturiy dostoni ekan, «Saddi Iskandariy» uning xulosaviy-xotimaviy masnaviysidir.

«Hayrat ul-abron» qomusiy asar boʻlib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun oʻta dolzarb boʻlgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulugʻ mutafakkirning teran axloqiy—ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Turkiy adabiyot tarixida bunday asarlar ramziy-majoziy obrazlarning turli masalalarga oid savol-javobi (Yusuf Xos Hojib «Qutadgʻu bilig») yoki asar muallifining hadislariga tayanib insonning ma'naviy kamolatga yetkazuvchi fazilatlari hamda uni jaholat botqogʻiga chorlovchi nuqsonlarini qiyoslash (Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq») uslubi bilan vujudga kelgan boʻlsa, Nizomiy Ganjaviy ilk dostonining erkin-ijodiy tarjimai boʻlgan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asron»ida kuzatilgani singari «Hayrat ul-abron»da ham ijodkoming barkamol shaxs haqidagi oʻylari maqolatlarda yorqin inʼikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch gʻoyalarni oʻquvchi shu uriga yanada teranroq taʼsir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi. Dostondagi maqolatlar sarlavhalarining oʻzi asarda komil inson ulugʻlanganligidan dalolat beradi:

1-maqolat: «Iymon sharhida».

2-maqolat: «Islom bobida».

3-maqolat: «Salotin zikrida».

4-maqolat: «Riyokorlik-firibgarlik haqida».

5-maqolat: «Xayr-u ehson vasfida».

6-maqolat: «Adablilik odati haqida».

7-maqolat: «Qanoat haqida».

8-maqolat: «Vafo haqida».

9-maqolat: «Ishq oʻti taʼrifida».

10-maqolat: «Rostlik haqida».

11-maqolat: «Ilm osmonining yulduzlaridek baland martabaliligi haqida».

12-maqolat: «Qalam va qalam ahlari haqida».

13-maqolat: «Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida».

14-maqolat: «Osmonning tuzilishidan shikoyat».

15-maqolat: «Jaholat mayi».

16-maqolat: «Xunosasifat oliftalar».

17-maqolat: «Bahor yigiriigining sofligi haqida».

18-maqolat: «Falak g'amxonasi haqida».

19-maqolat: «Xurosonning misli yo'q viloyati haqida».

20-maqolat: «Maqsadning o'talganligi haqida».

Ulug' shoir nuqtai nazarida iymon-komillikning tayanch belgisi. «Hayrat ul abror» birinchi maqolarining iymonning badiiy sharhiga bag'ishlanishi ham shundan dalolatdir. «Xamsa»ning tayanch masalasi insoni komibing zamonlar imtihonidan o'tishga yaragulik ibratli timsolini yaratish ekan, ulug' shoirning mavzu ibtidosinil iymondan boshlashi tasodifiy emas, albatta.

II.1. Maqolat mazmuni bilan unga qo'yilgan nasriy sarlavhaning mushtarakligi.

Buyuk so'z ustasi bo'lgan Alisher Navoiy tomonidan "Hayrat ul-abror" dostonidagi har bir maqolatga o'sha maqolat mazmunidan kelib chiqqan holda juda ustalik bilan nasriy sarlavhalar tanlangan. Har bir tanlangan nasriy sarlavha o'sha maqolatning tub mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan va bunga to'laqonli ravishda erishilgan. Bu Alisher Navoiy ijodining serqirra va yuksak ekanidan dalolat beradi.

Navoiy ijodida muhim o'rin tutadigan, ammo hozirga qadar tadqiqodchilar nazaridan ma'lum darajada chetda qolib ketayotgan masalalardan biri "Xamsa" dostonlarida keng qo'llanadigan nasriy sarlavhalardir. "Xamsa" she'riy asar bo'lsa ham, u har bir bobga nasriy sarlavhalar qo'yadi. Ularning "Xamsa" badiyatida tutgan o'rni beqiyos. Har bir sarlavhani shu bobning o'ziga xos nasriy debochasi deb aytish mumkin. Chunki nasriy sarlavhalarda bobdagi voqealar mazmuni ixcham ifodalangan bo'lib, ular bobning, ba'zan esa hatto dostonning g'oyaviy va badiiy olamini tushunish uchun o'ziga xos bir kalit. Shu bilan birga ular Navoiy qalamining sehri va qudrati bilan so'z san'atining betakror namunalariga aylangan.²

Jumladan, asardagi o'n birinchi maqolatning nasriy sarlavhasi haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Maqolatning mavzusi ilm haqida bo'lib, unga qo'yilgan nasriy sarlavha quyidagicha:

O'N BIRINCHI MAQOLAT

² O'zbek yili va adabiyoti jurnali. 2004. 1-son. 31-bet.

Ilm osmonining yulduzlaridek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunini yoritish uchun «ayn»i quyosh, «lom»i oy, «mim»i kunduz belgilarini ko'rsatadi; bilimsizlik shomining qorong'i ko'rinishi haqidakim, g'aflat chohini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, Johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi

Nasriy sarlavhani yozishda Navoiy badiiy san'atlardan ham unumli foydalangan. Xususan, o'n birinchi maqolatda tashbeh, tanosub, tazod kabi badiiy san'atlarni mohirona ishlata bilgan. Masalan, nasriy sarlavhaning ko'rkiga ko'rk qo'shgan, uni yanada jozibaliligini, o'qishliligini ta'minlagan badiiy san'atlardan biri bu tashbeh san'atidir. Bu san'at orqali Navoiy ilmni hayotimizda tutgan o'rnini naqadar beqiyos ahamiyatga molik ekanini ajoyib tarzda badiiy san'atlar vositasida yoritib bergan. Ulug'larning shunday gaplari bor: "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Darhaqiqat, shunday ekan, yashamog'imizning asl ma'nosi ham mana shu. Biz yashar ekanmiz, hayotning achchiq-chuchugini totib, bilmaganni so'rab, o'rganib yashamog'imiz kerak. Navoiy bobomiz ham aynan shuni nazarda tutgan holda, ilmni yorug'likka, nurga o'xshatadi. Quyosh, oy, kunduz kabi yo'limizni qanday yoritib tursa, ilm ham xuddi shunday ekanini aytadi. Uning har bir harfi nur taratguvchi ziyo ekanligi, har bir harfida olam-olam ma'no guldastalari borligini aytilib o'tadi. Bilimsizlikni esa qorong'ulikka, shomga o'xshatadi. Kimki ilmsiz bo'lsa, uning baxtsizligining, omadsizligining barcha sababi ham shundan. Ilmsiz odamning mol-dunyosi qancha ko'p bo'lsa ham u baribir kambag'aldir. Chunki mol-dunyo, boylik, zeb-u-ziynatlar o'tkinchidir. Kuni kelib, uning qo'ldan ketishi hech gap emas. Ammo insonlarning egallagan bilimlari qayerda bo'lmasin, har doim o'zlari bilan birga bo'ladi. Ilm shunday narsaki, uni hech kim sendan tortib ololmaydi. U har doim sen bilan: yolg'iz qolganingda ham, yor-birodarlar davrasida bo'lganingda, baxtli va qayg'uli onlaringda ham. Bu fikrlar maqolat bayoni davomida yoritib boriladi.

Yuqorida keltirilgan nasriy sarlavhada qo'llanilgan badiiy san'atlardan yana biri bu tazod san'atidir. Mumtoz adabiyotda qalam tebratgan deyarli barcha shoirlar o'z ijod namunalarida bu san'atdan keng foydalanishgan. Tazod san'atining ahamiyati shundaki, u asar ma'nosini yanada kengroq, yorqinroq va to'laqonli ochib berish uchun bir-biri bilan o'zaro ziddlik munosabatini hosil qilgan so'zlar orqali ifodalanadi. Bunda nafaqat so'zlar, balki gaplar ham bir-biriga qarshi qo'yilishi mumkin. Buni nasriy sarlavhadagi misollar orqali ko'rib o'tamiz. Bunda ilm va ilmsizlik, tun va kunduz, olim va johil, baland va past, quyoshdek yuksak va tuproqdek xor kabi bir-biriga o'zaro qarama-qarshi so'zlardan

mohirona foydalangan. Qolaversa, maqolatda ham tazod san'atidan keng foydalanilganini ko'rish mumkin:

Dahr ishi to xalq ila bo'lmish sitez,

Xordurur olimu johil aziz.

Fe'li yomon topsa rafi' aylabon,

Hukmiga olamni mute' aylabon.

Ya'ni: Dunyoning ishi yaratilgandan buyon dushmanlikdan iborat bo'lib, **olimlar xor, johillar aziz**. Toki jahon zulmni yoqlar ekan, meva yerga tushib, yog'och balandda turadi. Razolat rivojda, bilim ahllari ranj-uqubatda, tosh tog'ning **ustidayu**, boylik yerning **tagida** bo'ladi, falak fe'li yomon odamni topsa, uni ko'taradi, butun olamni uning hukmiga mute' qilib qo'yadi.

Bu nasriy sarlavhaning badiyati va uning mohiyatidagi mushtarakliklar edi. Shu o'rinda nasriy sarlavhadagi yana bir jumlagi e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Navoiy olim va johilning xususiyatlari haqida ham aytib, uni shunday ta'riflaydi: "...Olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi, Johilning esa butun borlig'i boylik, mol bo'lsa ham tuproqdek xorligi". Shoir bu jumlaning maqolatda yanada kengroq sharhlab o'tadi. Quyida maqolatning nasriy bayonidan keltirilgan parchaga e'tiboringizni qaratamiz:

Yomonlikni o'ziga shior qilgan Zuhul sayyorasi moviy rang qo'rg'on gumbazidan joy olgan; yaxshilikni qo'llovchi Mushtariy esa undan quyida. Bu, dunyoning yaxshini yomondan past ko'rishidan. Bu ahvoldan yaxshilarga doim g'amu ozor; bog'da esa gullarga tikanlar hamnafas, o'rtoq. Kimki sadafdek peshonalari tirishgan bo'lsa, u qo'ynini qimmatbaho durlar bilan to'ldiradi. Kimki durdek sof va pok bo'lsa, olmos bilan uning bag'ri chok etiladi. Tog' cho'qqisi qattiq bo'lishga bel bog'lagan sababli uning tig'i oyning yuzini timdalagan. Kimki la'ldek gavhari pok bo'lsa, balo tog'lari ostida g'amgin bo'lib yotadi. Otashparast hindu ko'mirdek qorayib ketgan esa-da, u yoqut taxt ustidan joy olgan. Gul bo'lib yongan o't esa eng past yer - kulning ustida.

Kimning asli ham yomon, oyog'i ham xunuk bo'lsa, toj va tovuş kabi hurmatda. Kimki o'z chiroyli so'zlari bilan ozod odamlarni ham o'ziga qilingan bo'lsa, sayroqi to'tidek bo'ynida zanjir. Boshqalarning bag'rini yorishni maqsad qilib olgan qushlar podshohlarning qo'lida orom olmoqda. Minglab dilkash kuylar kuylagan bulbul kul ichida kuyib xoru zor.

Odamlar Zamzam suvini qancha qiynalib keltirishadi; u esa shisha idishda turgan holda sasib qolgan bo'ladi. Qadahga to'latilgan may odamni buzuvchi narsadir, lekin ne-ne qizil lablardan u bo'sa oladi. Osmonda quyosh ko'zgudek yarqirab, porlab turadi, bulut esa ko'zguga puflangan hovurdek uni to'sadi. Tun o'z kuchi bilan oinaning rangini ochadi, oy yuzi esa shabnam tushishi bilan zanglaydi. Kapalak yengil tabiat xotindek ma'nosiz aylanib-o'rgiladi; tanasidagi rang-barang naqshlar uning ipak kiyimidir. Parvona esa dard bilan tunni qo'riqlaydi; qalbida o't, ustida eski palos.

Bir kambag'al odam ilm istab, o'z shahridan chiqib ketsa, bu qanday og'ir gap. Ahvolining baxtsizligidan oyoq yalang, to'ni yo'g'idan tanasi ham yalang'och. Oyog'ini tikanlar tirnagan, hatto tikan ustiga yana tikan kirgan. Bu hol o'qning uchida temiri bo'lganiga, «xor» so'zining ichida esa alif turganga o'xshaydi. («Xor» so'zining arab yozuvida yozilishi ko'zda tutiladi.) Boshidagi eski sallasi ham kulgulik, tuzoqqa o'xshab boshdan-oyog'i tilingan, yirtiq. U maqsadining qushini shu tuzoqqa ilintirmoqchi, ko'zidan tomgan yosh donalarini don qilmoqchi bo'ladi. Qo'ltig'ida varaq-varaq qog'oz va kitobi, tahsil olish uchun u shoshib boradi.

U qushdek, go'yo uchib ketmoqda; qo'ltig'idagi qog'ozlar go'yo uning qanot pati. Muhtojlikdan uning qorni och, ochlik uni ovqatga zor qilib qo'ygan. Kuchsizlikdan gavdasi qamishday bo'lib qolgan; qamish qalamdek tilini chiqarib, tilanchilik qiladi. To o'zining maqsadiga erishgunga qadar yo'l yurib, nima uchrasa yeb, qanoat qiladi. Maqsadi o'zi ko'rmagan bir mamlakatga yetish; u mamlakat uning hatto tushiga ham kirmagan.

U mamlakatda odamlar ko'p, lekin unga biron do'st yo'q. Ko'z oldidan o'zining shahru diyori o'ta boshlaydi. Ko'cha ham ko'p, uy ham, bozor ham. Lekin u qayoqqa borishini bilmaydi. Musofirlik yuragiga ta'sir qiladi; ko'nglini yolg'izlik ezadi. Ovqatsiz, kechqurungacha aylanib yuradi, oqshom kirgach, bulbul kabi bir burchakka joylashadi. Zaiflikdan hushi o'ziga kelmay, tonggacha ko'ziga uyqu ham kelmaydi. Tong otgach, madrasa tomon boradi; madrasaning ichidagi yig'inlarga kiradi. Kinga u o'z holatini bayon qilsa, u eshitib, hazilga olib, o'zini bilmaganga soladi. Til qoidasidan bir dars saboq olish uchun umr varag'ini havoga uchirganday sarf qiladi.

G'urbat aro holi yomondin-yomon,

Har ne yo'q andin yomon, andin yomon.

Ya'ni: Kunduzi unga na bir maskan topiladi, na kechasiga bir oromgoh tayin. Musofirlikda uning ahvoli yomondan ham yomon; bundan ortiq yomon narsani

topishning o'zi qiyin. Uning ahvolini gapirishga til ojiz, uni yozishga qalam tili ham lol.

Shunday g'am va zamon uqubatlarini chekib, o'n-o'n besh yil yelib-yugurib, jonini qiynab, madrasa burchagini g'am bilan obod qilib, tongdan oqshomgacha faryod etib, shu xilda ming mashaqqat chekkan bechoralardan, o'z vatanu mulkidan ovoralardan ba'zisi o'lib, ba'zisi har tomonga ketib, ba'zisi o'z orzusidan voz kechadi. Ba'zilari ozgina narsaga erishish bilan kifoyalanadi; ba'zisi esa o'z ustiga ko'p jafolarni oladi. Oyu yil doirasi aylanib-aylanib, natijada bitta-ikkitagina kamolot egasi yetishadi.

Ilmda bir odam sohibqiron bo'lguncha o'ttiz yilda bir davr kelishi kerak. Uning ko'ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylanadi. Yahudiycha desang yahudiychani biladi, yunoniy desang yunoniyni, suriya tilini desang suriya tilini; hindcha savol bersang, hindcha javob beradi. Ilm uning ko'nglini bir dunyoga aylantirib, bir qatraga butun bir daryoni yashiradi. So'zlarida to'la ma'no; gapni sirli bezaklarga o'rab gapiradi. U qalamining uchidan bir gapni qog'ozga to'kkach, qora siyoh bilan bitilgan u xatda obi hayot ko'rinadi. Yozuvining qoraligi obi hayot suvi bo'ladigan zulmat bo'lsa, uning ma'nosi bu zulmatdagi obi hayotdir. Osmon bilan bog'liq eng qiyin masalalarni ham osonlik bilan yechadi. Abu Ali ibn Sinoning hamma fikrlari unga tushunarli. Qalami xatning barcha xillarini yozishga qodir; ilmlarning hammasi unga ma'lum... Qalami har qanday yozuvni ko'chira olar, ilmlarning barchasidan xabardordir: Din masalalarida jaholat va maqtanchoqlikning dushmani bo'lib, kimsan G'azzoliy bilan Shofiyga o'xshaydi.

Navoiy ilmi inson haqida fikr yuritar ekan, uning bilim egallash bosqichlarini birma-bir aytib o'tadi. U olim darajasiga yetishgunga qadar qanchadan-qancha azob-uqubat va qiyinchiliklarni boshdan o'tkazganligini aytadi. Bir harfni o'rgangunga qadar necha kunlab umri ketishi, sarson bo'lishi va oxir-oqibat qanday yo'l bilan bo'lmasin o'z maqsadiga yetganini aytadi. Navoiyning fikricha, xuddi mana shunday ilmga chanqoq, uni egallashda hech qanday qiyinchiliklardan bo'yin tovlamaydigan kishilarni haqiqiy olim deb atash mumkin. Lekin bu yo'lda uchraydigan o'ziga xos mashaqqatlar ham borki, ularga qarshi umri davomida kurasha olgan insongina chin olimdir. Navoiy bularni shunday ta'riflaydi:

Garchi u falakdan shunday kamolot topgan esa-da, lekin uning boshidagi falokatlar ham bekamu ko'st. Shomdan ertasi tushgacha ovqatlanmaydi, tushlik qilsa, kechqurunga hech narsa yo'q. Qizig'i shuki, uning johil xo'jayini u bilan yomon ko'rishadi, gaplari ham yoqimsiz. Uning dinu diyonatida hech bir qoida yo'q, balki unda dinning, diyonatning o'zi yo'q. G'azablanib, ishi hamma narsani

yeldek sovurish; o`jarlik qilib, hamma narsani o`t kabi kuydirish. U ko`rish sham'ini o`chirish kerak bo`lgan darajada xunuk, aqldan hayoni ketkazadigan darajada tentak. U dunyoda Xudoning yaratgan balosi bo`lib, xulqi va ko`rinishining o`zi buning ikki guvohidir. Uning odati, fe'li, odam o`ldirish, badanidagi har bir tuk o`lim temiridir. Ichida tutunday qorong`ilik, tashida alangaday surbetlik. Pastkashlikda it bilan barobar, balki it uning oldida odam.

Bundan ham ajabrog`i shundaki, shuncha jaholati bilan, jaholatgina emas, razolati bilan charx uni eng yuksak mansab egasi qilib qo`ygan; hamma odamlar va sipohlar unga tobe'. O`t kabi hadeb o`jarlik qiladi; to`ni esa zarrin matolardan. U garchi ilondek hammaga zarar yetkazsa ham, o`zi Faridun xazinasidek xazina ustida orom oladi. U o`zi tikonday qancha o`tkir bo`lsa ham, tong yellari uning boshidan gul sochishadi. Odam o`ldirish ishida qilichdek taniqli bo`lsa ham, shoh uning beliga qimmatbaho kamar boylab qo`ygan. Uning dili go`zallarning xolidek qancha qora bo`lsa ham, lekin doim gul yuzida jilva qiladi. Uning yaramasliklari gapirgan bilan ado bo`lmaydi, lekin uning dabdabasi undan ham ortiq.

Xalqimizda yomonni ko`rmasdan turib, yaxshini qadriga yetib bo`lmaydi degan gap bor. Agar jamiyatimizda yomon odamlar bo`lmaganda edi, biz hech qachon yaxshi odamlarni qadriga yetmas edik. Lekin falak o`sha johil odamga shunday katta mol-davlat ato etganki, shu vajhdan hamma birdek unga xushomad qiladi. Hatto ilm egasi bo`lgan olim ham nafs balosi tufayli unga mute`:

Ul odam o`zining fazilati va fasohati bilan mashhur, bunisi esa fe'li va qabohati bilan. Qizig`i shuki, bunisi qancha yuz odamni xor-zor qilib, qanchadan-qancha obro`ga ega bo`lgan. Xalq uni «amir» deb ataydi. U shu nom bilan odamlarni o`z qo`l ostida tutadi. Bunga uning buyurganini qilishi lozim. Olim ham uning eshigida xizmatda. Qara, pastkash nafs shunday farishtasifat odamni la'nati dev oldida xor va zabun qilib qo`ygan; o`n marta uning oldiga kirishga taraddud qilsa, darvozabon va qorovul uni qo`ymaydi. Biror marta agar uning oldiga kirib qolsa, uning diydorini ko`rish bunga baxt nasib etganday. Bek agar uning hol-ahvolini so`rab, iltifot ko`rsatsa, bu uni ketma-ket duo qilgani qilgan. Duosini tugatib, o`rnidan turib, uyiga jo`nar ekan, uning yerini ham o`padi.

Amir shunday bexud holda o`zinikilar va begonalar bilan munosabatda bo`ladi, odamlarni yig`ib, ularga maqtanchoqlik bilan gap tushuntiradi. Xudo haqi, qara, bu qanday ahvol? Buni ozgina ta'riflash uchun ham til lol. Uning kibru havosini ko`ru buning qashshoqligiga qara!Ularning o`rtalarida nima gap bo`lishi mumkin?

Ilmni kim vositai joh etar,

O`ziniyu-xalqini gumroh etar.

Ya'ni: Unisi johil bo`lib, bunisi olim bo`lsa ham, bu olim emas, o`ziga zolimdir. Ilmni kim amalga erishish uchun vosita qilsa, o`zini ham, xalqini ham yo`ldan adashtiradi. Olim agar amal uchun pastkashlik qilsa, ilmi uning bilimsizligiga dalildir. Ilmi bo`lib turib, kim mansabga uchsa, toza terni dengiz suvi bilan teng ko`rgan bo`ladi. Itning maqsadi o`limtik bo`lgandan keyin unga bezakdor yopqichning nima keragi bor? Boshliq bo`lish uchun ilm qozongan pastkash odam najosatni ipak libos bilan yopgan bo`ladi.

Solmasa ko'z jafoi dunyo sori,

Boqmasa tuz dunyoyi foni sori.

Oni sharaf gavharining koni bil,

Gavharu kon har ne desang, oni bil.

Yani: Olim agar o`z yo`liga qat'iy amal qilsa, ilmiga qarab ish tutsa, dunyoning harom mollariga ko`z olaytirmasa, o`tkinchi dunyoga tikilib qaramasa, bunday odamni sharaf gavharining koni deb bil, gavhar desang ham, kon desang ham - nima, desang, o`shanga tegishlidir.

Haqiqiy olim o`zi konu, yuz tomoni yana gavhar, o`zi osmonu, har tarafi yulduzlari Konidagi gavharlarning ham barchasi pok, osmonidagi yulduzlari ham porloq. Kimga shunday baxt nasib bo`lsa, u dunyoga ko`z olaytirmasa, ajablanadigan joyi yo`q.

Yuqoridagi firlar asosida shuni aytish mumkinki, johil har qancha boy-badavlat va obro`li bo`lmasin, odamlar unga vaqtinchalik, faqatgina o`z ehtiyojlari yuzasidangina yaxshi munosabatda bo`ladilar. Uning ustun tomoni ham aynan mana shunda yaqqol ko`zga tashlanadi. Agar biror falokat yuz berib, barcha boyliklari qo`lidan ketsa, u odamlarning nazdida "hech kim"ga aylanadi.uning bori ham yo`gi ham mana shu boylik, mol-dunyo orqaligina ifodalanib qoladi. Ilmli inson esa aksincha, u har qanday holatda ham barcha uchun birdek aziz va hurmatlidir:

Egnidagi to`nida yuzta yirtiq bo`lsa ham, gulning to`ni yirtiq-yirtiq ekani ayb emas-ku! Quyoshning yalong`ochligi uning ziynati-ku; bulutdan libos kiyganda esa, hammayoqni qorong`ihk bosadi. Asal qovoqdan nari tursa shirinroq bo`ladi. Mushk ham kiyikning kindigidan ajratilsa, hid beradi. Er kishining sharafi kiyimda emas; dur sadafdan uzoq bo`lsa, bahosi kamaymaydi. Pashshaning ham ustiboshi zarrin, ammo uning qo`nadigan joyi o`limtiklarning ustidir.

II.2. Navoiy «Hayratul - abror»da yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy masalalariga keng oʻrin beradi. Shoir turli tabaqa kishilariga munosabat bildiradi. Asardagi koʻpgina hikoyatlar orqali oʻz mulohazalarini bayon etadi. Shulardan biri bu **Imom Faxr Roziy** va sulton **Muhammad Xorazmshoh** haqidagi hikoyatdir. Bu hikoyat orqali ilmning qay darajada afzalligi juda chiroyli, tushunarli, qisqa, loʻnda va aniq holda yoritib berilgan. Ming bor eshitgandan bir bor koʻrgan afzal deganlaridek, keling biz hikoyat matni bilan tanishib chiqamiz:

Imom Faxr Roziy bilan sulton Muhammad Xorazmshohning hammomda doʻstlik sham'ini yoqqanligi va imomning soʻzi bilan sultonning takabburlikdan voz kechgani

Sirdonlar davrasining podshosi, dunyodagi barcha dindorlarning imomi Faxriddin Xorazmni oʻziga oromgoh qilganda, uni koʻrishga Xorazmshoh kelmadi. U soʻrab, buning oldiga kelmagandan keyin, ilmning qadr-qimmatini saqlab, bu ham bormadi, Shoh oʻz qilmishidan uyalib, Bir kuni imom hammomga tushgan edi. Shoh ham hammomga yoʻl oldi. Ular bir-birlari bilan koʻrishib, shoh unga ochilib shunday savol berdi:

— Ey, oʻz ilmi bilan elni bahramand etgan qiyomat ishlaridan bir xabar ber-chi. U kun qanday mashaqqatlar yuz beradi? Har bir kishining ahvoli nima boʻladi?

Shoh shunday ma'noli savolni bergan edi, kamolot egasi bunga shunday javob berdi:

- Ey qiyomat kunini bilishni orzu qilgan odam, qiyomat haqidagi savolga eng monand joy mana shu hammomdir. U yerda ham shoh bilan gado bir xil ahvolga tushib, shohu gado barchasi yalangʻoch yuradi. Amaldorlar, kattalar hammasi senga oʻxshab, ichkariga kirgach, boru yoʻgʻi tashqarida qoladi. Ilmu hunar egalari esa menga oʻxshab, nima yiqqan boʻlsa, oʻzi bilan olib kiradi, vassalom. Sultonlikdan senga u kuni koʻp foyda yoʻq, lekin menga ilmim tufayli yaxshilik koʻp boʻladi.

Hikoyatdan maʼlum boʻladiki, Imom oʻz ilmiga sodiq va uni hech qachon boshqa maqsadlar yoʻlida ishlatmaydigan, oʻz yoʻlidan ogʻmaydigan qatʼiyatli bir inson sifatida koʻzga tashlanadi. Bu yoʻlda u hatto shohga ham qarshi chiqadi. Ilmi va uning hurmati tufayli shohning yoniga borishga vijdoni yoʻl qoʻymaydi. Shoh ham oʻz navbatida oʻzining obroʻsini oʻylab, Imomning yoniga bormaydi. Oqibat har ikkovlarining ham gʻururi ustun kelib, ancha paytgacha bir-birini koʻrolmay yurishadi. Lekin ularning hammomda boʻlib oʻtgan uchrashuvlari barcha narsaga

oydinlik kiritadi. Yuqorida aytib o'tganimiz, olim kishining fazilatlari mana shu Imom Faxr Roziy shaxsiga singdirilgan.

Ey Navoiy, ilm, bilki, sening maqsadingdir. Endi ilmni yiqqan ekansan, unga amal qil.

Ey soqiy, doim menga shunday bodadan tutki, imom uni ko`rib, darhol sajdaga bosh qo`ysin. Undan kimki ichsa, Xorazmgina emas, Xorazmshoh ham uning oyog`i ostidagi tuproq bo`ladi.

II.3. Insonlarning komillikka erishishida ilmning ahamiyati.

Ilm o'rganish - Allohdan qo'rqish, uni talab qilish - ibodat, izlash - jihod, bilmaganga o'rgatish - sadaqa, uni o'z ahliga o'rgatish - Allohga qurbatdir. Ilm - tanholikda hamroh, hilvatda - do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi - dalil, begonlar oldida - eng sodiq do'st, Jannat yo'lining minorasidir.

Hazrati Umar ibn Hattob r.a.

Insonlarning fazilatlari hamisha sharq shoirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Musulmon Sharqida yetishgan qaysi bir shoir ijodini olib ko'rmang, unda pand-nasihat ohangidagi asarlarga duch kelamiz. Qadimgi adiblarimiz adabiyotni tarbiya vositasi, insonga insoniylikdan saboq berish vositasi deb qarashgan. Xoh sof lirik asar bo'lsin, xoh voqea-hodisalar, afsona-sarguzashtlardan iborat epik asarlar bo'lsin, ularda "mav'iza", ya'ni o'git-nasihat xarakteridagi qismlar bo'lgan. Bu yerda yana shuni ta'kidlash kerakki, axloqiy mazmundagi adabiyot o'zi alohida yo'nalishdir. Buni sharqliklar "pandnoma" deb yuritishgan. "Qobusnoma", "Qutadg'u bilik", "Guliston", "Bo'ston", "Mahbub ul-qulub", "Bahoriston" shunday tipdagi asarlardir. Shunga o'xshash "Xamsa"larning birinchi dostonlari ham "pandnoma"larga mazmunan yaqindir. Biroq bu asarlarda axloqiy g'oyalar falsafiy-tafakkuriy muhokamalar zaminida bayon etiladi.

Inson axloqi haqidagi ulug' shoirlarning qarashlari ularning umumiy falsafiy-so'fiyona fikrlaridan hosil bo'lgan. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar ham inson axloqiga o'rta asr kishisi nuqtai nazaridan, o'zlarigacha jamlangan ilmu hikmat asosida, so'fiyona ma'nolar talabi bilan munosabatda bo'lganlar.

Shoirlar yuqorida aytganimizday, insonni barcha maxluqotning afzali, sharifi deb ta'riflab, shuni uqtiradilarki, odam o'ziga munosib yaxshi ishlar bilan shug'ullanishi, o'z nomini yomon, tuban xulq-atvor bilan bulg'amasligi kerak.

Bunday insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan, insonni sevish va sharaflashni targ'ib etuvchi satrlar "Hayrat ul-abror"da ham ko'plab topiladi. Jumladan:

Koniyu hayvoni agar xud nabot

Har biri bir gavhari oliysifot,

Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading.

Ulug' o'zbek shoiri insonga birinchi navbatda hayotdagi faoliyati, kirdu koriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltiradigan foydali ishlar bilan qadrli, fazilatli.

Alisher Navoy insonning muhim fazilatlaridan biri sifatida bilimdonlikni ko'rsatgan. Bu yerda eng muhimi shuki, ulug' shoir aniq suratda o'z davrining voqealaridan kelib chiqib, notavon, kambag'al bolalar uchun ilmu irfon egallashning nihoyatda qiyin ekani, eng yomoni shuki, azob bilan bilimdon bo'lganlar xoru nodon, razillar esa rohatda yashashini bir dard, alam bilan tasvirlagan.³

³ Muhiddinov M. "Xamsa"larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri. Samarqand – 2001. 10-15-betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov R.J., Eshonqulov H. P. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti-2006.
2. Muhiddinov M. "Xamsa"larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri. Samarqand - 2001